

MAHALLIY KENGASH DEPUTATI VAKOLATLARINI MUDDATIDAN ILGARI TUGATISH TARTIBI VA ASOSLARI

Avezov Dilshod Sadulayevich

*Toshkent davlat yuridik universiteti Uzluksiz ta'lim boshqarmasi
boshlig'i*

ПОРЯДОК И ОСНОВАНИЯ ДОСРОЧНОГО ПРЕКРАЩЕНИЯ ПОЛНОМОЧИЙ ДЕПУТАТА МЕСТНОГО СОВЕТА

Авезов Дилшод Садулаевич

*Заведующий управлением непрерывного образования
Ташкентского государственного юридического
университета*

PROCEDURE AND GROUNDS FOR EARLY TERMINATION OF THE AUTHORITY OF A LOCAL COUNCIL DEPUTY

Avezov Dilshod Sadulayevich

*Head of the Continuing Education Department of Tashkent State
Law University*

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalliy Kengash deputatining vakolatini qonunchilikda belgilangan muddatidan ilgari tugatish tartibi va uni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada mazkur huquqiy jarayonning amaldagi qonunchilik normalari asosida qanday amalga oshirilishi, uning xususiyatlari tahlil qilinib, yakunda muallif tomonidan takliflar ilgari suriladi.

Kalit soʻzlar: mahalliy kengashlar, deputat, qonunchilik, muddatidan ilgari tugatish, huquqiy asoslar.

Abstract: This article analyzes the procedure for early termination of the authority of the deputy of the local Council and the issues of its improvement. The article analyzes how this legal process is carried out on the basis of current legal norms, its features, and finally, the author puts forward suggestions.

Key words: local councils, deputy, legislation, early termination, legal grounds.

Аннотация: В данной статье анализируется процедура досрочного прекращения полномочий депутата местного Совета и вопросы ее совершенствования. В статье анализируется, как осуществляется данный юридический процесс на основе действующих правовых норм, его особенности и, наконец, автор выдвигает предложения.

Ключевые слова: местные советы, депутат, законодательство, досрочное прекращение полномочий, правовые основания.

KIRISH. Mahalliy kengashlarning faoliyati boshqaruvning hal qiluvchi jihati bo'lib, jamiyat ehtiyojlari va manfaatlarini mahalliy darajada ifodalanishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada mahalliy Kengash deputatining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish tartibi va asoslari ko'rib chiqiladi.

ASOSIY QISM. Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari natijasida Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Inson qadri uchun!" tamoyili davlat organlari faoliyatining bosh mezoniga aylandi. Shu sababli, hududlarda aholiga munosib turmush sharoitlarini yaratib berish maqsadida o'rta va uzoq muddatlarga mo'ljallangan ijtimoiy-



E-mail:

davezov07@gmail.com

Orcid: 0009-0005-3077-
2305

iqtisodiy taraqqiyot parametrlari aniqlanib, rivojlanish strategiyalari belgilab olinmoqda. Davlat hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish siyosatini olib borish orqali mintaqalarning o'ziga xosligi, ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mintaqalararo integratsiya masalalari, muammoli mintaqalarni qo'llab-quvvatlash, islohotlarni ayrim yo'nalishlarini to'g'ridan-to'g'ri mintaqalarga o'tkazish, turli mintaq va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi jiddiy muammolarni kamaytirish va tugatish masalalariga alohida e'tibor beradi. Bu esa, davlat boshqaruvida markazlashtirish siyosatidan voz kechish zarurligini, ko'pgina vakolatlarni markaziy davlat organlaridan hududiy organlarga o'tkazish kerakligini ko'rsatmoqda. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari haqida so'z ketganda, muayyan hududdan o'sha hududda istiqomat qiladigan aholi tomonidan saylov orqali shakllantirilgan vakillik hokimiyat organlari tushuniladi. Mazkur vakillik tuzilmasining faoliyati demokratik boshqaruvning mahalliy darajasidagi tipik namunasi hisoblanadi. Zero, bu jamiyatni isloh qilish jarayonlariga keng ommani ko'proq jalb etish, mintaqalar imkoniyatlarini ishga solish, mahalliy hokimiyat organlari va mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshirish uchun qulay demokratik muhitni yaratadi. Ushbu muhitni joylarda ta'minlash uchun esa saylangan xalq vakillarining mahalliy boshqaruvdagi amaliy ishtiroki hamda aholi irodasi va manfaatlarini aniq aks ettirish vositalarining mavjudligi taqozo etiladi.¹

Alohida hollarda deputatning vakolatlari tegishli xalq deputatlari Kengashi qaroriga binoan muddatidan ilgari tugatilishi mumkin. Deputat degan yuksak nomga dog' tushiruvchi xulq-atvor bunday masalani ko'rib chiqish uchun asos bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 21.10.2024 yildagi "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi KQ-835-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamenti 38-moddasiga muvofiq, Mahalliy Kengash raisi ovoz berish orqali mahalliy Kengash

deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan mahalliy Kengash qaroriga binoan muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilinishi mumkin. Mahalliy Kengash raisini muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish to'g'risidagi masala mahalliy Kengash deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismidan iborat deputatlar guruhining taklifiga binoan mahalliy Kengash tomonidan ko'rib chiqiladi. Mahalliy Kengash raisini muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish to'g'risidagi masala ko'rib chiqilayotganda sessiyada mahalliy Kengashning doimiy komissiyalari raislaridan biri raislik qiladi. Mahalliy Kengash raisini muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish to'g'risida qaror qabul qilinadi, qaror mahalliy Kengash sessiyasida raislik qiluvchi tomonidan imzolanadi.² Noqonuniy xatti-harakatlar, jumladan, korrupsiya, hokimiyatni suiiste'mol qilish, axloqsiz xatti-harakatlar yoki jinoiy harakatlar muddatidan oldin tugatish uchun asos bo'lishi mumkin. Kengashlar odatda qabul qilinadigan xatti-harakatni belgilaydigan xulq-atvor qoidalariga ega va buzilishlar intizomiy choralarga, jumladan, muddatidan oldin tugatishga olib kelishi mumkin. Deputat o'z vazifalarini doimiy ravishda bajarmasa yoki o'z vazifasiga bo'lgan talabni qondirmasa, uning vakolatlari ham tugatilishi mumkin. Bu kengash majlislarida qatnashmaslik, o'z elektoratini samarali vakillik qilmaslik yoki kengash qarorlariga rioya qilmaslikni o'z ichiga oladi.

Qonunchiligimizda yuqoridagi normalar borasida bir qancha rivojlantirilishi mumkin bo'lgan masalalarni keltirib o'tish mumkin: Birinchidan, sudning qonuniy kuchga kirgan qarori asosida bedarak yo'qolgan deb topilgan shaxsning deputatlik o'rnidan mahrum bo'lishi masalasi qayt ko'rilishi lozim. Nazarimizda, mazkur norma, agar deputat qaytib kelsa yoki uning yashash manzili va holat aniqlansa, qaytadan deputat etib tayinlashning imkoni bo'lmay qoladi. Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining 02.12.2004 yildagi 706-II-son Qonuni 3-moddasida xalq tomonidan deputatning lavozimidan ozod etish masalasi kiritilishi lozim. Bundan, aytaylik qonunga "saylovchilr tashabbusi" kabi yangi termin qo'shgan holda, aytaylik, mazku

¹ Sherov, Q. (2023). Mahalliy vakillik organlari normativ-huquqiy hujjatlari loyihalarining jamoatchilik muhokamalarini takomillashtirish masalalari. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(1), 73-77.

² Aliqulov, K. U. (2022). The concept, content and significance of normative legal acts of local public authorities. *Miasto Przyszłości*, 24, 15-19.

hududdagi aholi sonining 1/5 qismi muhokmaga tegishli deputatni lavozimidan ozod etish borasida taklif kiritishi mumkin bo'ladi.

XULOSA. Mahalliy Kengash deputatining vakolati samarali boshqaruv va jamoatchilik vakillari uchun zarurdir. Biroq, ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatishni talab qiladigan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Mahalliy Kengashlarning ushbu jarayon davomida o'z saylovchilari bilan shaffof muloqot qilishi ishonchni mustahkamlash va demokratik qadriyatlarni himoya qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagilarda kelib chiqib, "saylovchilar tashabbusi" bilan tegishli deputatning lavozimidan ozod etish malalari qonunlar – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlarida aks ettirilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurashidova, M. (2024). Mahalliy hokimiyat organlari. Молодые ученые, 2(13), 63-67.
2. Mihaylovna, S. S. (2024). Yangi o'zbekiston konstitutsiyasida mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Hozirgi zamon psixologiya ilmidagi dolzarb muommolar: yechimlar va imkoniyatlari, 91-95.
3. Sherov, Q. (2023). Mahalliy vakillik organlari normativ-huquqiy hujjatlari loyihalarining jamoatchilik muhokamalarini takomillashtirish masalalari. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(1), 73-77.
4. Aliqulov, K. U. (2022). The concept, content and significance of normative legal acts of local public authorities. Miasto Przyszłości, 24, 15-19